O'ZBEKISTON XIZMATLAR EKSPORTINING GEOGRAFIK TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: GRAVITATSION MODEL ASOSIDA TAHLIL	1202
Qodirjonov Adhamjon	



BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA‘MINLASHDA TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINING INSTITUTSIONAL OMILLARI.....	1212
Arifbayev Bobur Dilshodovich	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В РАМКАХ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030».....	1219
Аблаева Валентина Борисовна	
FINANCING A GREEN UNIVERSITY: MECHANISMS, MODELS, AND STRATEGIC DIRECTIONS FOR SUSTAINABLE CAMPUS DEVELOPMENT	1227
I. Imomov, F.Nishonov	
ПОНЯТИЕ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО МАРКЕТИНГА В УЗБЕКИСТАНЕ	1234
Шоев Алим Халмуратович	
ANALYZING UZBEKISTAN’S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME.....	1239
Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi	
ANALYZING UZBEKISTAN’S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME.....	1239
Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSILAR HISOBIGA ASOSLANGAN XOLATDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI TASHKIL ETISH TARTIBI	1247
Xasanova Xusnoraxon Faxriddinovna	
HUDUDIY MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA INVESTITSION FAOLLIKNING ROLI VA UNING RIVOJLANISH MEKANIZMLARI.....	1251
Ollanazarov Bekmurod Davlatmurotovich	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ.....	1257
Менглиева Индира Баходировна	
ЦЕНООБРАЗОВАНИЕ НА ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМ РЫНКЕ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ	1261
Умарбеков Бахром Ботирбекович	
O‘ZBEKISTON QAYTA SUG‘URTA TIZIMIDA “ALTERNATIVE RISK CAPITAL”NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME‘YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA)	1270
Jorabaev Jasur Abduraxmanovich	
O‘ZBEKISTON QAYTA SUG‘URTA TIZIMIDA ALTERNATIVE RISK CAPITAL’NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME‘YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA)	1276
Jo‘rabayev Jasur Abdurahmonovich	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BOSHQARUV KADRLARINING LIDERLIK SALOHİYATINI BAHOLASH MASALALARI.....	1282
Rasulov Shohruxbek G‘ulomjon o‘g‘li, Ibragimov Isroil Usmonovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA MEVA VA SABZAVOT ISHLAB CHIQRISH KO‘RSATKICHLARINING XO‘JALIKLAR TOIFALARI BO‘YICHA TAHLILI.....	1286
Majidova Dilnoza Bahromovna	
TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHDA SUN‘IY INTELLEKTNING (SI) TA‘SIRI.....	1290
Begimqulov Javohirbek Jo‘raqul o‘g‘li	
MINTAQADA SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMI VA ZARURLIGI.....	1300
Xodjaeva Feruza Komilovna	
TOSHKENT VILOYATI HUDUDLARINING IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI IQTISODIY FARQLAR TAHLILI.....	1305
Saidakbarov Saida‘zam Aziz o‘g‘li	
KORXONALARDA UMUM ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBI	1309
Yax‘yayeva Dilfuza Bagdatovna	
ONLAYN BRONLASH TIZIMLARI: TURLARI, XUSUSIYATLARI VA AJRALIB TURUVCHI BELGILARI	1314
S.S. Ismatillaeva	



BUDJET TIZIMI BUDJETLARI IJROSI USTIDAN MOLIVAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1320
Saidova Kamolat Farhodovna	
КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ, ПОРОЖДАЮЩИХ ЖЕНСКУЮ ПРЕСТУПНОСТЬ: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ	1326
Нуриллоева Заррина Зокиржоновна	
SAMARQAND VILOYATI MEHMONXONA XO'JALIGIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TURISTLAR OQIMINI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1331
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin qizi	
SOLIQ YUKINI HISOBLASH VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILINING METODOLOGIK JIHATLARI	1334
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ: ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ РЕЗЕРВЫ РОСТА И РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ ПЕРСОНАЛА.....	1341
Аминжоновна Вазира Мамасидиковна	
DZYUDOCHILARDA USHLAB OLISH (KUMI-KATA) STRATEGIYASINING MUSOBAQA NATIJALARIGA TA'SIRI.....	1350
Shermatov Gulom Qaxxorovich	
G'AZNACHILIK TIZIMIDA RISKLARNI ANIQLASH VA NAZORAT TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	1357
Xasanov Adiz Xusenovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI HAMDA UNI QISQARTIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR.....	1363
Beknazarov Behzod Baxtiyorovich	
IMPROVEMENT OF THE COMMERCIAL BANK PRIVATIZATION PROCESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	1368
Djumaniyazov Islam Karimbayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SOHASI INVESTITSION VA EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI.....	1374
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
TIJORAT BANKLARIDA RISK-MENEJMENTI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	1378
Madaminov Bekzod Allayarovich	
IQLIM O'ZGARISHLARI VA XAVF OMILLARI SHAROITIDA AGRAR BIZNESDA XARAJATLAR TAHLILI VA XATARLARNI BOSHQARISH.....	1383
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINING BOSHQARUVIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI	1387
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ ЭКСПОРТНОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ НА ОСНОВЕ ЭФФЕКТИВНОЙ ЛОГИСТИКИ И УПРАВЛЕНИЯ ЦЕПОЧКАМИ ПОСТАВОК.....	1392
Каримова Хулкар Рахманали кизи, Махмутуллаева Севинч Хабибулла кизи	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERSIFIKATSİYALASHNING METODOLOGIK ASOSLARI	1399
Norova Nozima Nabiyevna	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	1406
Ahmedova Dilnoza Qalandar qizi	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING EKOLOGIK MUVOZANATINI SAQLASH ORQALI BARQAROR RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI (NAVOIY VILOYATI TAJRIBASI)	1411
Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
KORXONALARDA ESG (ENVIRONMENTAL, SOCIAL, GOVERNANCE) HISOBOTLARINING AUDITINI TASHKIL ETISH VA BAHOLASH MEKANIZMLARI.....	1417
Xolikov Ravshan Anvar o'g'li	



SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1420
Omonov Olim Murodullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	1424
Sharifi Abdul Fatah	
TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR	1430
Sadikov Q.M.	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	1434
Kurbosheva Mohira Xafizovna	
MURAKKAB LOYIHALARDA RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH	1439
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТЬЮ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	1442
Камолова Феруза Кахрамоновна	
O'ZBEKISTON HUDUDIY RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK YO'NALISHLARI	1448
Ma'murov Baxtiyor Xolmatjanovich	
O'ZBEKISTONDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	1456
Ismailova Gulruh Faxriddinovna	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ПЕРСОНАЛОМ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: ЦИФРОВИЗАЦИЯ, УПРАВЛЕНИЕ ТАЛАНТАМИ И МОТИВАЦИЯ	1462
Абилов Эльман Худаверди оглы	
O'ZBEKISTON BANKLARINING AML TIZIMLARIDA SUN'YI INTELLEKT: STRATEGIK ZARURAT VA JORIY ETISH YO'LLARI	1468
Rashidov Avazbek Raximovich	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TUG'ILISH KO'RSATKICHLARI STATISTIK TAHLILI	1475
Abduraxmanov Abduazim Djalaliddinovich	
BANK KREDITINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RESURLAR BILAN TA'MINLASHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1483
Bo'tayev O'tkir Eshboevich	
TIJORAT BANKLARINI DAVLAT TASARRUFIDAN CHIQRISH VA XUSUSIYLASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA UNI CHUQURLASHTIRISH YO'LLARI	1489
Salamov Islom Tashkazakovich	
FRANCHAYZING ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI KORXONALAR MAHSULOTLARINI XALQARO BOZORDA ILGARI SURISHDA MERCHANDAYZING DIZAYNI VA VIZUAL MARKETING YONDASHUVLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	1495
Xodjayev Anvar Rasulovich	
ISHLAB CHIQRADIGAN SANOAT RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH	1501
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	
QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANGAN YERLARNI BOSHQA YER TOIFALARIGA O'TKAZISHNING AXAMIYATI.....	1510
Safayev Sanjarbek Zafarbek o'g'li	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI.....	1516
Ibroximov Iloxomjon Shavkatjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SAMARADORLIGI OMILLARI TAHLILI	1522
Maxmudova Maftunaxon Shavkatjon qizi	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORIJIY KREDIT LINIYALARINI JALB ETISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING AMALDAGI HOLATI	1529
Aytiboev Nodirbek Rashid o'g'li	



AUDITDA MUHIMLIK CHEGARASI KO'RSATKICHINI ANIQLASH MUAMMOLARI.....	1534
Pirnazarova Juldiz Djamiljan qizi	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СФЕРЫ УСЛУГ В ЭКОНОМИКЕ СТРАН МИРА И УЗБЕКИСТАНА.....	1538
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARINI MUSTAHKAMLASHDA MOLIYAVIY RESURSLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	1544
Imanova Umida Baxtiyorovna	
A COMPARATIVE ANALYSIS OF VOCATIONAL EDUCATION SYSTEMS IN SAUDI ARABIA AND UZBEKISTAN	1549
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
YO'LOVCHI TASHISHDA KICHIK TADBIRKORLIK SHAKLLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MODELLARI	1555
Aytieva Sevara Allaberdievna	
XIZMATLAR SEKTORIGA INVESTITSIYA JALB QILISHDA STRATEGIK TAMOYILLAR VA ULARNING IJTIMOY-IQTISODIY NATIJALARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI.....	1561
Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li, Nabiye G'ulom Abdusalomovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA UNIVERSITETLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	1566
Boboxo'jayev Asliddin Muzaffarovich	
"YASHIL IQTISODIYOT" GA O'TISH JARAYONINI MOLIYALASHTIRISH	1571
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
MAHALLA BOSHQARUVIDA OCHIQLIK VA MOLIYAVIY SHAFFOFLIKNI OSHIRISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	1575
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1581
Dagarov Bekzod Muzaffar o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVI.....	1589
Xasanov Axmadjon Shodiyarovich	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVI

Xasanov Axmadjon Shodiyarovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: hasanovahmadzon559@gmail.com

Tel.: +998 77 527-04-04

Annotatsiya. Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslarini boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari tadqiq etilgan. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining roli va uning ishlab chiqaruvchi kuch sifatidagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot davomida samaradorlikning to'rtta shakli — ehtiyojga yo'naltirilgan, maqsadli, iqtisodiy va tijorat shakllarini o'z ichiga olgan uch komponentli hamda kengaytirilgan modellari tahlil qilingan. Muallif tomonidan personalga qilinadigan xarajatlar va tizim samaradorligini baholash uchun to'rt omilli determinatsiyalarga multiplikativ model hamda zanjirli o'rin almashtirish usuli taklif etilgan. Ushbu metodika korxonada boshqaruvidagi “tor” joylarni aniqlash va resurslardan foydalanish strategiyasini optimallashtirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: mehnat resurslari, xizmat ko'rsatish sohasi, inson kapitali, samaradorlikni baholash, omilli tahlil, zanjirli o'rin almashtirish usuli, determinatsiyalashgan model, personalni boshqarish, kontekst-kompetentlik yondashuv.

Аннотация. В статье исследованы методологические подходы к оценке эффективности управления трудовыми ресурсами в сфере услуг. Раскрыта роль человеческого капитала и его значение как производительной силы в условиях инновационной экономики. В ходе исследования проанализированы трёхкомпонентные и расширенные модели эффективности, включающие четыре формы: ориентированную на потребности, целевую, экономическую и коммерческую. Автором предложены детерминированная мультипликативная четырёхфакторная модель и метод цепных подстановок для оценки затрат на персонал и эффективности системы управления. Данная методика позволяет выявлять «узкие» места в управлении предприятием и оптимизировать стратегию использования ресурсов.

Ключевые слова: трудовые ресурсы, сфера услуг, человеческий капитал, оценка эффективности, факторный анализ, метод цепных подстановок, детерминированная модель, управление персоналом, контекстно-компетентностный подход.

Annotation. This article examines methodological approaches to evaluating the effectiveness of labor resource management in service enterprises. The role of human capital and its importance as a productive force in the context of an innovative economy are highlighted. The study analyzes three-component and extended models of efficiency, incorporating four forms: need-oriented, goal-oriented, economic, and commercial. The author proposes a four-factor deterministic multiplicative model and the chain substitution method to assess personnel costs and system efficiency. This methodology enables the identification of “bottlenecks” in enterprise management and the optimization of resource utilization strategies.

Keywords: labor resources, service sector, human capital, efficiency evaluation, factor analysis, chain substitution method, deterministic model, personnel management, context-competence approach.

KIRISH

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanib, xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslarini samarali boshqarish masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda. Mazkur sohada yaratilayotgan natijaning muhim qismi xodimlar faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ularning malakasi, unumdorligi va xizmat ko'rsatish sifati korxonada raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.



Hozirgi sharoitda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash nafaqat resurslardan oqilona foydalanish, balki mehnat resurslarini boshqarish jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishni ham talab etadi. Biroq amaliyotda natija va xarajatlar o'rtasida doimiy va qat'iy bog'liqlik mavjud emasligi sababli, samaradorlikni baholashda faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarga tayanish yetarli bo'lmaydi. Shu bois ehtiyojga yo'naltirilgan, maqsadli, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarni o'zida mujassam etgan kompleks yondashuvlardan foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarda mehnat resurslarini boshqarish samaradorligini baholashning turli usullari ishlab chiqilgan bo'lsa-da, xizmat ko'rsatish sohasi xususiyatlarini, xususan, xizmatlarning nomoddiyligi, mijoz bilan bevosita o'zaro aloqadorlik hamda mehnat natijalarining ko'p omilliligi inobatga oluvchi uslubiy yondashuvlar yetarli darajada takomillashmagan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslarini boshqarish samaradorligini baholashga kompleks uslubiy yondashuvni ishlab chiqish va omilli tahlil asosida uni takomillashtirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslarini boshqarish samaradorligini baholash masalasi iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, ushbu yo'nalishda bir qator olimlar tomonidan muhim nazariy va metodik asoslar ishlab chiqilgan.

Qosimjon Abdurahmonovning mehnat iqtisodiyotiga oid tadqiqotlarida inson kapitali va mehnat resurslaridan samarali foydalanish korxonada iqtisodiy natijadorligining asosiy omili sifatida talqin etiladi. Muallif mehnat samaradorligini oshirishda xodimlarning malakasi, mehnat motivatsiyasi va boshqaruv tizimining o'zaro bog'liqligiga alohida e'tibor qaratadi.

Michael Armstrong va A. Ya. Kibanovning ilmiy ishlari personalni boshqarish tizimini takomillashtirish, xodimlar faoliyatini baholash hamda motivatsion mexanizmlarni ishlab chiqishga bag'ishlangan. Ushbu yondashuvlarda inson resurslarini boshqarish korxonaning strategik rivojlanishining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

G. V. Savitskaya hamda A. D. Sheremet va R. S. Sayfulinlarning ishlarida korxonada xo'jalik faoliyatini kompleks tahlil qilish metodologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda omilli tahlil, determinatsiyalashgan modellar va iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash usullari keng yoritilgan. Ushbu ilmiy yondashuvlar samaradorlikni baholashda xarajat va natija o'rtasidagi nisbatni aniqlashga imkon beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud adabiyotlarda mehnat resurslarini boshqarish va uning samaradorligini baholashga oid muhim nazariy va amaliy asoslar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, xizmat ko'rsatish sohasining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda kompleks, integratsiyalashgan baholash uslubiyoti yetarli darajada rivojlanmagan.

Shu bois xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslarini boshqarish samaradorligini baholashga zamonaviy, omilli tahlilga asoslangan uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslarini boshqarish samaradorligini baholash metodologiyasi tizimli, kompleks va ilmiylik tamoyillari asosida shakllantirildi. Tadqiqotning nazariy asosini iqtisodiy nazariya, mehnat iqtisodiyoti va zamonaviy personalni boshqarish konsepsiyalari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida tizimli va kontekst-kompetentli yondashuvlar qo'llanilib, mehnat resurslarini boshqarish korxonaning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy tizimi sifatida ko'rib chiqildi. Samaradorlikni baholashda iqtisodiy natijalar bilan bir qatorda ijtimoiy, maqsadli va ehtiyojga yo'naltirilgan ko'rsatkichlar uyg'unligi ta'minlandi.

Asosiy analitik vosita sifatida omilli tahlildan foydalanilib, determinatsiyalashgan multiplikativ model asosida samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar tizimlashtirildi. Zanjirli o'rin almashtirish usuli yordamida har bir omilning natijaviy ko'rsatkichlarga ta'siri miqdoriy baholanib, muammoli nuqtalarni aniqlash imkoniyati yaratildi.

Shuningdek, tadqiqotda iqtisodiy-statistik tahlil, taqqoslash, guruhlash va dinamik tahlil usullari qo'llanildi. Natijada samaradorlikni baholashning ehtiyojga yo'naltirilgan, maqsadli, iqtisodiy va tijorat jihatlarni qamrab oluvchi integrallashgan model ishlab chiqildi hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash imkoniyati yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion iqtisodiyotning asosini hozirgi davr jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hal qiluvchi kuchi hisoblangan inson kapitali tashkil etadi. Ya'ni inson tafakkuri ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) tizimining shunchaki muayyan unsuri bo'lib qolmasdan, balki bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi.

Iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlar uchun ham, yetakchi iqtisodiyotlar uchun ham umumiy tavsifga egaligini aytish mumkin.



Ijtimoiy-iqtisodiy tizim samaradorligining muhim ko'rsatkichi bo'lib iqtisodiy samaradorlik hisoblanadi. Shunday ekan, amaliyotda muayyan darajada iqtisodiy samaradorlik tamoyili qo'llab-quvvatlanadi. Chunki hamma vaqt ham natijalar va xarajatlar kutilgan miqdoriy o'zgarishlarga olib kelmaydi; xarajatlar va natija o'rtasida qat'iy korrelyatsion bog'liqlik mavjud bo'lmaydi. Shuning uchun maqsadga muvofiq tarzda samaradorlikni aniqlashning o'zaro bog'liq shakllarini birgalikda qo'llash va maqsadli ehtiyojlar hamda iqtisodiy vaziyat bilan tahlilni uyg'unlashtirish zarur.

Maqsad yoki natijada ehtiyojlarni aks ettirish darajasini ifodalovchi ehtiyojlar samaradorligi shuni ko'rsatadiki, agar personalni baholash tizimining maqsadli yo'naltirilganligida baholash ob'ektlari va subyektlar ehtiyojlari hisobga olingan bo'lsa hamda tizim shakllanishi natijasida uning barcha elementlari ehtiyojlari realizatsiya qilinsa, u holda uni samarali deb hisoblash mumkin.

Samaradorlikning boshqa shakli personal ehtiyojlarining qondirilish darajasi tahlilini nazarda tutuvchi ijtimoiy samaradorlik hisoblanadi. Baholash tizimi ko'p elementli tarkibni o'zida namoyon etadi, shuning uchun uning samaradorligini tahlil etishda tashkiliy tarkib ehtiyojlari va manfaatlarini hisobga olish zarur: subyektlar (rahbarlar) va ob'ektlar (alohida shaxslar), personalni boshqarish tizimi, tashkilotlar hamda tashqi muhit.

Samaradorlikni baholash tizimini aniqlash turli xil tomondan o'tkazilishi mumkin:

— tadbirkorlik tuzilmalari ehtiyojlari nuqtai nazaridan olingan natija (samara)ni ishlab chiqarish xarajatlari bilan solishtirish muhimligi;

— ishchi-xodimlarni (personalni) boshqarish xizmati nuqtai nazaridan personalni boshqarishning barcha tizimi shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi, amalga oshirilgan ishlar ko'lamini tavsiflovchi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari muhimligi;

— alohida ishchilar va rahbarlar nuqtai nazaridan shaxsan ahamiyatli maqsad, vazifalar va ehtiyojlarga hamda qo'l ostidagilarni boshqarish usullari va mehnat natijalarini yaxshilash samarasiga erishish muhimligi;

— xizmatlarni bilvosita iste'molchilar nuqtai nazaridan samaradorlik hududiy, ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarni realizatsiya qilish orqali amalga oshiriladi (mehnat bozori bosimining pasayishi, kasblarga talab va taklifni tartibga solish va h.k.).

Yuqorida keltirilgan holatlarni realizatsiya qilish darajasi tahlili natijalari bo'yicha samaradorlikni baholash tizimi o'rnatiladi, biroq bu yerda ehtiyojlar ustuvorligini tanlash muammolari yuzaga kelishi va ularning optimal birikishi masalalari to'liq hisobga olinmagan.

Samaradorlik tizimi kategoriyalarining integral ifodasi quyidagi formula asosida hisoblanishi mumkin:

$$C_n = \frac{M_{\bar{o}}}{\mathcal{E}_c} \times \frac{H_{\bar{o}}}{M_{\bar{o}}} \times \frac{H_{\bar{o}}}{X_{\bar{o}}} \quad (1)$$

bu yerda:

S_p – personalni baholash tizimi samaradorligi;

M_b – baholash maqsadi;

E_s – subyektlar ehtiyojlari va baholash obyektlari;

N_b – baholash jarayoni natijasi;

X_b – baholashga xarajatlar;

M_b/E_s – samaradorlikning ehtiyojga yo'naltirilgan shakli;

N_b/M_b – samaradorlikning maqsadli shakli;

N_b/X_b – samaradorlikning iqtisodiy shakli.

Bunga bog'liq holda personalni baholashning yangi tizimi uning barcha subyektlari va ob'ektlari ehtiyojlarini ifodalaydi, ehtiyojlarga yo'naltirilgan samaradorlik esa bir birlikka tenglashtiriladi. Xuddi shuningdek, natija to'liq maqsadni realizatsiya qilgan holatda maqsadli samaradorlik ham birlikka tenglashtiriladi.

Bunday holatda biz natija va xarajatlarni taqqoslash asosida iqtisodiy samaradorlikning an'anaviy ifodasiga ega bo'lamiz, ya'ni samaradorlik mohiyatining kompleks tushunchasi nuqtai nazaridan ushbu tizim maksimal darajada mahsuldor hisoblanadi, agar u minimal xarajatlar bilan ehtiyojlarni eng yuqori darajada qondira olsa.

Bundan kelib chiqqan holda, agar amaliyotda shunday vaziyat yuzaga kelsa, ya'ni samaradorlikni qiymat ifodasida miqdoriy hisob-kitob qilish va xarajatlar bilan taqqoslash imkoniyati bo'lmasa, u holda samaradorlikning maqsadli va ehtiyojlarga yo'naltirilgan shakliga murojaat qilinadi.



Bizning fikrimizcha, samaradorlikning uch komponentli modeliga maqsadga muvofiq holda yana bir tur — tijorat samaradorligini ham qo'shish mumkin. Tijorat samaradorligi investitsiya hajmi sof foyda va amortizatsiya hajmi bilan taqqoslanganda, personalni baholash tizimiga kiritilgan qo'yilmalarni qoplash muddatini aks ettiradi hamda raqobat muhitida tadbirkorlik tuzilmalari manfaatlariga javob beradi.

Xodimlarning mehnat faoliyati ko'rsatkichlarida personalni baholashning takomillashgan tizimi dissertatsiyada ishlab chiqilgan ta'sirni miqdoriy baholash hamda korxonada samaradorligi ko'rsatkichlarida o'zaro bog'liq ikki vazifani hal qilish uchun zarurdir:

- personal ishi samaradorligi o'zgarishini baholash;
- personalni baholashning yangi tizimini joriy etish bilan bog'liq xarajatlardagi o'zgarishlarni baholash.

Xizmat ko'rsatish korxonasida ishchi-xodimlar mehnati bilan bevosita bog'liq xarajatlarni baholashda nafaqat ish haqi summasi, balki mukofotlar, bonuslar, moddiy yordam, hisoblangan ichki jarimalar hamda personalni baholash natijalari asosida qo'llaniladigan nomoddiy motivatsiya shakllari ham inobatga olinishi lozim.

Yuqorida keltirilganlarni maqsadga muvofiq tarzda hisobga olgan holda personalni baholash samaradorligi tizimini tahlil qilish uchun omilli modelni ishlab chiqish va joriy etish zarur. Bunda model nafaqat personalni baholash tizimini modernizatsiya qilish hisobiga samaradorlikning o'zgarishini baholash, balki bunday o'zgarishlarga sabab bo'luvchi omillarni hamda ularning yakuniy natijalarga qo'shgan hissasini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotlar natijasida personalni baholash tizimi samaradorligining omilli modeli quyidagi tuzilishga ega bo'lishi aniqlandi:

$$Y = X_1 \times X_2 \times X_3 \times X_4, \quad (2.9)$$

bu yerda:

Y – o'zgaruvchiga bog'liq personalga xarajatlarning umumiy summasi;

X_1 – personalni baholash tizimi rivojlanishiga rejalashtirilayotgan mablag'lar bilan bog'liqlikda xarajatlarning o'sishi koeffitsienti (ya'ni, ushbu mablag'larning ahamiyatli qismi sof foydadan olinadi va u tannarxga kiritilmaydi);

X_2 – korxonaning bir ishchisiga to'g'ri keladigan ish haqi jamg'armasining o'rtacha miqdori;

X_3 – xizmatlarning mehnat sig'imi;

X_4 – hisobot davridagi tushum hajmi summasi.

Taklif etilgan omilli model kontekst-kompetentlik yondashuv bazasida tadbirkorlik tuzilmalarida personalni boshqarishning modernizatsiyalashgan tizimini joriy etish samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi. Shunday ekan, xizmat ko'rsatishning yakuniy natijasiga ta'sir etuvchi omillarning har birining ta'sir darajasini aniqlash zarur. Buning uchun maqsadga muvofiq holda omilli tahlilni amalga oshirish talab etiladi.

Omilli tahlil — bu natijaviy ko'rsatkichlar hajmiga ta'sir etuvchi omillarni o'lchash hamda ularni tizimli va kompleks o'rganish metodologiyasidir.

Omilli tahlilning quyidagi turlari farqlanadi:

— determinatsiyalashgan (funktional) va stoxastik (korrelyatsion);

— to'g'ri (deduktiv) va teskari (induktiv);

— bir pog'onali va ko'p pog'onali;

— statistik va dinamik;

— retrospektiv va istiqbolli.

Determinatsiyalashgan omilli tahlil natijaviy ko'rsatkichlar funktsional bog'liqlikka ega bo'lgan omillar ta'sirini tadqiq etish metodikasini ifodalaydi. Ya'ni natijaviy ko'rsatkich omillarning ko'paytmasi yoki algebraik yig'indisi ko'rinishida ifodalanadi.

Yuqorida keltirilgan formula determinatsiyalashgan multiplikativ to'rt omilli model hisoblanadi. Determinatsiyalashgan omilli modellar (additiv, multiplikativ, karrali, aralash)ning barcha turlarida omillar ta'sirini hisoblash uchun eng universal usul sifatida zanjirli o'rin almashtirish usuli qo'llaniladi.

Zanjirli o'rin almashtirish usuli ko'rsatkich o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ichidan asosiylarini ajratish hamda ularning natijaviy ko'rsatkichga ta'sir darajasini aniqlash imkonini beradi. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, bir omilning ta'siri aniqlanayotgan paytda qolgan omillar o'zgarmas deb qabul qilinadi.

Buning uchun bazis (reja) ko'rsatkichlari hisobot ko'rsatkichlari bilan ketma-ket almashtiriladi. Olingan natijalar oldingi ma'lumotlar bilan taqqoslanadi va ularning farqi umumiy ko'rsatkich o'zgarishiga mazkur omilning ta'sir darajasini ifodalaydi.

Mazkur uslub eliminatsiya prinsipiga asoslanadi. Eliminatsiya — bu natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillardan bittasidan tashqari qolganlarini vaqtincha chiqarib tashlashni anglatadi. Bundan kelib chiqib, omillar



ketma-ket izolyatsiya qilingan holda o'zgartiriladi: dastlab bitta omil o'zgartiriladi, qolganlari o'zgarmas deb olinadi; keyin navbatdagi omil o'zgartiriladi va hokazo.

Mazkur modelda zanjirli o'rin almashtirish usulidan foydalaniladi. Bu holatda personalni baholashning yangi modelini joriy etishdan olinadigan umumiy samara quyidagi formula orqali aniqlanishi mumkin:

$$\Delta Y = Y_1 - Y_0, \quad (2)$$

bu yerda:

ΔY – personalga xarajatlar hajmini o'zgarishida ifodalangan personalni boshqarishning yangi tizimini joriy etishdan umumiy samara;

Y_1 – personalni boshqarishning yangi tizimini joriy etishdan keyin personalga xarajatlarning umumiy summasi;

Y_0 – personalni boshqarishning yangi tizimini joriy etishdan oldin personalga xarajatlarning umumiy summasi.

Bunda yuqorida keltirilgan qiymat quyidagi ko'rinishda hisoblanadi:

$$Y_1 = X_1^1 \times X_2^1 \times X_3^1 \times X_4^1, \quad (2.11)$$

$$Y_0 = X_1^0 \times X_2^0 \times X_3^0 \times X_4^0, \quad (2.12)$$

bu yerda:

$X_1^1, X_2^1, X_3^1, X_4^1$ – personalni boshqarishning yangi tizimini joriy etishdan keyingi omillar qiymati;

$X_1^0, X_2^0, X_3^0, X_4^0$ – personalni boshqarishning yangi tizimini joriy etishdan oldingi omillar qiymati.

Ushbu holatda har bir ajratilgan omilning ta'sirini aniqlash uchun oraliq qiymatlar qatorini hisoblash zarur.

Ular quyidagi formulalarda keltirilgan:

$$Y_a = X_1^1 \times X_2^0 \times X_3^0 \times X_4^0, \quad (2.13)$$

$$Y_b = X_1^1 \times X_2^1 \times X_3^0 \times X_4^0, \quad (2.14)$$

$$Y_c = X_1^1 \times X_2^1 \times X_3^1 \times X_4^0, \quad (2.15)$$

Shunday ekan, har bir ajratib olingan omilning o'zgarishi hisobiga natijaviy ko'rsatkich (personalga umumiy xarajatlar) o'zgarishini hisoblash imkoniyati bo'ladi. Buning uchun quyidagi formulani qo'llash zarur:

$$\Delta Y_a = Y_a - Y_0, \quad (2.16)$$

$$\Delta Y_b = Y_b - Y_a, \quad (2.17)$$

$$\Delta Y_c = Y_c - Y_b, \quad (2.18)$$

$$\Delta Y_d = Y_1 - Y_c, \quad (2.19)$$

bu yerda:

ΔY_a – personalni boshqarish tizimini modernizatsiyalash bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar hisobiga personalga qilinadigan xarajatlar o'zgarishi;

ΔY_b – bitta xodimga to'g'ri keladigan ish haqi jamg'armasining o'rtacha miqdori o'zgarishi hisobiga personalga xarajatlarning o'zgarishi;

ΔY_c – xizmatlar mehnat sig'imining o'zgarishi hisobiga personalga xarajatlarning o'zgarishi;

ΔY_d – hisobot davrida tushum hajmini o'zgarishi hisobiga personalga qilinadigan xarajatlarning o'zgarishi.



Personalga xarajatlarning umumiy o'zgarishini zanjirli almashtirish usuli orqali omilli tahlil bajarilishi metodikasi bilan muvofiqlikda har bir to'rt omil hisobiga o'zgarishlar summasidan kelib chiqishi kerak. Shunday ekan, xarajatlarning summali oshishi yoki kamayishi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\Delta Y = \Delta Y_a + \Delta Y_b + \Delta Y_c + \Delta Y_d, \quad (3)$$

Shuningdek, biz tomonimizdan kontekst-kompetentlik yondashuv asosida xizmat ko'rsatish korxonalarida personalni boshqarish tizimini modernizatsiyalash bo'yicha tadbirlar samaradorligini baholash imkonini beruvchi matematik model ishlab chiqildi. Mazkur model doirasida personalni boshqarish tizimiga joriy etilishi mumkin bo'lgan samaradorlikning to'rtta shakli hisobga olinadi, ya'ni: ehtiyojlarga yo'naltirilgan samaradorlik, maqsadli samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik va tijorat samaradorligi.

Bundan tashqari, modelda personalni boshqarish tizimiga kiritilgan qo'yilmalarni qoplash muddatini aniqlash orqali raqobat muhitida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari manfaatlarini ham ifodalaydi. Shu sababli tijorat samaradorligini model tarkibiga kiritish zarur hisoblanadi.

Taklif etilgan omilli model kontekst-kompetentli yondashuv asosida tadbirkorlik subyektlarida personalni boshqarishning modernizatsiyalashgan tizimini joriy etishdan olinadigan samarani kompleks baholash imkonini beradi. Ushbu to'rt omilli determinatsiyalashgan multiplikativ model natijaviy ko'rsatkich o'zgarishiga ta'sir etuvchi har bir omilning hissasini alohida baholash imkoniyatini yaratadi.

Mazkur yondashuv korxonada mavjud muammoli bo'g'inlarni aniqlash, samaradorlikni oshirishga qaratilgan aniq boshqaruv choralarini ishlab chiqish hamda tizimning "tor" joylarini aniqlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslarini boshqarish samaradorligini baholashda mavjud yondashuvlar yetarli darajada kompleks emas. Inson kapitalining korxonada faoliyatidagi hal qiluvchi o'rni shuni tasdiqlaydiki, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi nafaqat iqtisodiy natijalar, balki ijtimoiy, maqsadli va ehtiyojga yo'naltirilgan ko'rsatkichlar uyg'unligida baholanishi lozim.

Omilli tahlil asosida ishlab chiqilgan yondashuvlar mehnat resurslarini boshqarishga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va ularning natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sir darajasini baholash imkonini beradi. Bu esa boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslangan holda qabul qilish hamda korxonada samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish sohasining o'ziga xos xususiyatlari mavjud baholash tizimlarini yanada takomillashtirishni talab etadi. Ayniqsa, personalni baholash tizimida integrallashgan yondashuvlardan foydalanish va raqamli indikatorlarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, taklif etilgan uslubiy yondashuv mehnat resurslarini boshqarish samaradorligini kompleks baholashga, resurslardan foydalanish darajasini oshirishga hamda xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021.
2. Qodir Abdurahmonov. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot: darslik. – Toshkent: Fan, 2019.
3. G.V. Savitskaya. Анализ хозяйственной деятельности предприятия. – Москва: ИНФРА-М, 2020.
4. Michael Armstrong. Практика управления человеческими ресурсами. – Санкт-Петербург: Питер, 2018.
5. A.Ya. Kibanov. Управление персоналом организации. – Москва: ИНФРА-М, 2019.
6. A.D. Sheremet., R.S. Sayfulin. Методика комплексного анализа хозяйственной деятельности. – Москва: Экономика, 2021.
7. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
8. Peter Drucker. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. – New York: Harper & Row, 2008.
9. Michael Porter. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 2008.
10. Gary Becker. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
11. Robert Kaplan., David Norton. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Boston: Harvard Business School Press, 1996.
12. OECD. Human Capital and Productivity: A Policy Perspective. – Paris: OECD Publishing, 2001.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>